



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR
AKADEMIYASI



**MUZEYLAR: AN'ANA, NOVATSIYA VA
RENOVATSIYA INTEGRATSIYASIDA**
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami

2024-yil 1-aprel

TOSHKENT 2024

UO‘K: 94:061(093)
KBK: 63.3(5O‘zb)
O‘61

Mas‘ul muharrir:

Jannat Ismailova, tarix fanlari doktori, professor
Alisher Ismailov, tarix fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim
Larisa Levteyeva, tarix fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Dilafro‘z Karimova, t.f.b. falsafa doktori (PhD), kat.i.x.
Mansur Safayev, kichik ilmiy xodim

Taqrizchilar:

T.f.d., prof. B.V.Xasanov, t.f.n., kat.i.x.X.Fayziyev

O‘zbekiston O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi. «Muzeylar: an‘ana, novatsiya va
renovatsiya integratsiyasida» nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
to‘plami./**Mas‘ul muharrirlar:** J.X.Ismailova, A.F.Ismailov, L.G.Levteyeva;
–Toshkent, 2024-yil 1-aprel. - 445 b.

Konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar
vazirining 2024-yil 20-martdagi «2024-yilda qo‘shimcha o‘tkaziladigan xalqaro
va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar to‘g‘risida»gi 76-son
buyrug‘i bilan tashkil etilgan.

Mazkur to‘plamdan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida an‘anaviy tarzda
o‘tkazib kelinayotgan «Muzeylar: an‘ana, novatsiya va renovatsiya
integratsiyasida» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plamida muzeyshunoslik, tarix,
arxeologiya, etnologiya hamda muzeylarda innovatsion texnologiyalarni jalb
etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o‘rin olgan.

To‘plam tarkibidan o‘rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot
natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

To‘plam O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O‘zbekiston tarixi
davlat muzeyi Ilmiy kengashining 2024-yil 17-apreldagi 3-son majlisi qarori
asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-723-73-8

© O‘zR FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, 2024.

ma'lumotlar muzeyga tashrif buyuruvchi tomoshabinlarga, o'sib kelayotgan kelajak avlod va yoshlarga, muzey xodimlari tomonidan ekskursiya tarzida qiziqarli ma'lumotlar berib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Карабоев М.С. Скран золото-редкометалльных месторождений Восточного Букантау и их поисково-отсеочное значение // Геология и минеральные ресурсы. №2, 2016. 19-22 б.
2. Yangi O'zbekistonda muzeylarning rivojlanish omillari: kecha va bugun ilmiy amaliy konferensiya. Toshkent. 2023 y. 49-52 b.
3. Musayev P. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Toshkent, 2019. 176 b.
4. Tursunov X. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent, «O'zbekiston» 1997. 206 b.
5. Qodirov Ye.V. va boshqalar. Tabiiy muhitni muhofazalashning geologik asoslari. Toshkent. «O'zbekiston» 1999. 160 b.
6. To'xtayev A.S. Ekologiya. Toshkent, O'qituvchi, 2001. 89 b.

ABDULLAEVA D. A.

*Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası o'qituvchisi
dilfuza_abdullayeva2023@mail.ru
(O'zbekiston)*

XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA MANG'IT HUKMDORLARI QARORGOHINING TA'MIROTIDAGI MUAMMOLAR

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XX asrning 50-80-yillarida Buxorodagi Ark qo'rg'onining ahvoli, uni saqlash hamda muhofaza qilish masalasi maxsus muassasa va tashkilotlar faoliyatiga doir hujjatlar asosida yoritiladi. Shuningdek, mazkur davrda obidaning muhofazasi va ta'mirlash ishlarining o'ziga xos jihatlari, qolaversa, mavjud muammolar hamda yodgorlikka bo'lgan munosabat xususida ma'lumotlar keltirilgan.*

Аннотация: *В данной статье на основе документов, связанных с деятельностью специальных учреждений и организаций, рассматривается состояние крепости Арк в Бухаре в 1950-1980-е годы, ее сохранение и охрана. Также представлены конкретные аспекты работ по охране и ремонту памятника, а также существующие проблемы и отношение к памятнику в этот период.*

Annotation: *Based on documents related to the activities of special institutions and organizations, this article examines the state of the Ark fortress in Bukhara in the 1950s and 1980s, its preservation and protection. It also presents specific aspects of the monument's protection and repair work, as well as existing problems and attitudes towards the monument during this period.*

Buxoro me'moriy obidalarining ta'mirlanish tarixi sovet hokimiyati yillarida bir qadar murakkab va ziddiyatli kechdi. Bu borada XX asrning 20-yillarida o'lkamizdagi me'morchilik obidalari, madaniyat va tarixiy yodgorliklarni saqlash hamda muhofaza qilish maqsadida ta'sis etilgan muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza etish Turkiston qo'mitasi

(Turkkomstaris), keyinchalik, Sredazkomstaris hamda Uzkomstaris tashkilotlari faoliyati ahamiyatli bo'ldi.

Sredazkomstaris qo'mitasi tashabbusi bilan 1925-yil 4-may sanasida Ark qo'rg'oni davlat ro'yxatiga kiritiladi. Ayni shu kundan e'tiboran, obidada rasman ilmiy asosda o'rganish, tadqiq etish hamda muhofaza qilish ishlari amalga oshiriladi. Keyingi yillarda Buxoro me'moriy obidalarining muhofazasi va ularni ta'mirlash, qayta tiklash tarixida muhim ahamiyat kasb etgan muassasalardan biri – Muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar hamda san'at va tabiat muhofazasi bo'yicha Buxoro qo'mitasi (Buxkomstaris) tomonidan Ark qo'rg'onida ta'mirlash ishlari bajariladi.

XX asrning 50-yillaridan boshlab Ark qo'rg'onining ta'mirlanishi bilan bog'liq jarayonlarda ma'lum o'zgarishlar yuz bergan. Chunki, mazkur obidaning O'zbekiston SSR Madaniyat vazirligi tasarrufiga o'tkazilishi ularni saqlash, ta'mirlash va muhofazasi uchun mas'uliyatni ham bildirar edi. Endilikda, Arxitektura ishlari boshqarmasi ushbu yodgorliklar ta'miri bilan bog'liq masalalarni Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda hal eta boshlagan.

Biroq obida ta'mirotida bir qadar nooqilona yondashuvlar yuz berganligi kuzatiladi. Misol tariqasida, 1955-yil 3-aprelda Ko'rinishxona hovlisining yog'och ustunlari chirishi va shamolga bardosh berolmaganligi natijasida o'pirilish sodir bo'lganligi, ayvonning shimoliy qismi ham avariya holatiga kelib qolganligi aniqlanadi. Shu sababdan, 1956-yilda 500.000 rubl mablag' ajratilib, mazkur muammoni qisman bartaraf etishga erishilgan [1]. 1957-yil 4-dekabr sanasida esa Ta'mirlov idorasining Buxoro uchastkasi rahbari N.V.Ivanov, Buxoro viloyat arxitektura bo'limi vakili, muhandis I.Ya.Patik, Yodgorliklar muhofazasi bo'limi etakchi arxitektori K.S.Kryukov, arxitektor G.Ikromovlar ishtirokida Buxoro Arkining Nog'oraxonasi o'ta avariya holatida ekanligi rasmiylashtirilgan. Natijada, zudlik bilan karkas ustunlarni ta'mirlash va o'rab olish ishlari bajarilib, bu qismdan foydalanmaslik choralari ko'riladi. Masala yuzasidan Arxitektura ishlari boshqarmasi boshlig'i R.R.Abdurasulovning Madaniyat vaziri A.M.Ko'chqorovga yo'llagan murojaatlaridan keyin esa ta'mirlash ishlari uchun 200.000 rubl mablag' ajratilishiga erishiladi [2].

Buxoro arkining muhofazasi 1957-yil 1-oktyabrdan boshlab rasman Buxoro viloyat tarixiy-o'lkashunoslik muzeyi zimmasiga yuklatiladi. Shunday bo'lsa-da, bino xavfsizligi va nazorati Arxitektura ishlari boshqarmasining Buxorodagi hududiy vakili vakolatida qoldirilgan. Bu 1959-yil 12-oktyabrda hududiy vakil S.Sharipovning Muzey direktori A.Mahmudov, Moddiy madaniyat yodgorliklarini saqlash qo'mitasi rahbari I.Usmonxo'jaev, Buxoro viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'i X.Davronovaga yo'llagan murojaatlarida ham namoyon bo'ladi. Unda hududiy vakil Arkning shimoliy qismidagi devor–tepaliklardan mahalliy aholi tomonidan o'z ehtiyojlari uchun qum olish hollari ko'p marta kuzatilayotganligi, bu devorning qulashi va aholining xavfsizligiga ham ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab, «...*Bu kabi yodgorliklarga ziyon yetkazish hollari aniqlanganda, moddiy madaniyat namunalari zarar etkazilishi munosabati bilan jinoiy ish ko'zg'atish uchun menga xabar berishingizni so'rayman*»[3] – deydi. Mazkur murojaatlar

tahlili shuni ko'rsatadiki, kuzatuv-nazorat va xavfsizlik masalalari hududiy vakil vakolat doirasiga kirgan.

1961-yil boshlarida esa Respublika Maxsus ilmiy ta'mirlash va loyihalash byurosi (MITLB) tomonidan Ark Nog'oraxonasining konstruktiv holati o'rganilib, mustahkamlash loyihasi ishlab chiqiladi. Natijada, joriy yilning sentabr oyida Nog'oraxona ta'mirlanib, jarayonga A.Muhammadjonov, texnik-xodim Melixov, fotograf Yuditskiylar jalb etilgan. 1962-yil 1-aprel holatida Buxoro me'moriy obidalaridan 42 tasi davlat muhofazasidagi yodgorliklar sifatida qayd etiladi [4]. Mazkur ro'yxatga Ark qo'rg'onining ham kiritilishi bir qadar uning muhofaza va ta'miroti masalasidagi ijobiy siljishlarga sabab bo'ldi.

Buxoro maxsus ilmiy ta'mirlash ishlab-chiqarish ustaxonasi (MITICHU) tomonidan 1971-1972-ta'mir yillarida Ark qo'rg'oni devorlarini mustahkamlash hamda Ko'rinishxona hovlisida qayta tiklash ishlari olib boriladi. Iqtisodiy hujjatlarga ko'ra, 1975-yilda Ark qo'rg'onida jami 10.000 rubl miqdorida ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan [5]. 1976-yilda sodir bo'lgan zilzila oqibatida zarar yetgan obidalariga Buxoro MITICHU tomonidan 830.000 rubl miqdorida ishlar amalga oshirilgan bo'lib, jami o'n oltita me'moriy obida ta'mirlangan. Xususan, Ark qo'rg'oni bosh fasad devorining shimoliy va g'arbiy qismlarida qayta tiklash ishlari bajarilgan. Ta'mir jarayoniga oid smeta hujjatlaridan, Arkda olib borilgan ishlar uchun davlat budjetidan 40.000 rubl miqdorida mablag' ajratilganligi ma'lum bo'ldi.

Buxoro viloyat madaniyat boshqarmasining 1977-yilga doir hisobot hujjat tahlili, Ark qo'rg'onining old qism burchak devorlari hamda shimoli-g'arbiy devorida, Jome masjidida qayta tiklash ishlari yakunlanib, janubiy tomon devorida ta'mirlash davom ettirilganini ko'rsatdi [6]. Bajarilgan ishlar uchun davlat budjetidan 38.500 rubl miqdorida mablag' ajratilgan.

Buxoro MITICHU tomonidan 1981-yilda Ark qo'rg'onida keng ko'lamli ishlar amalga oshiriladi. Ushbu ta'mir ishi devorlarning g'ishtini qayta terib chiqish, ikki guldasta minorali g'arbiy darvoza, Nog'oraxona binosi, bosh darvozaga olib boradigan 20 metrli nishob yo'lka rekonstruksiyasini o'z ichiga olgan. Shuningdek, yodgorlik atrofi me'moriy qimmatga ega bo'lmagan eski imoratlar, katta-kichik do'konlardan tozalanadi. Mazkur obodonlashtirish va ta'mirlash ishlaridan so'ng faqat g'arbiy qismigina ko'rinib turadigan Ark binosi hamma tomonidan yaqqol ko'zga tashlanadigan holatga keltirilgan. Bu bajarilgan ta'mir ishlarining e'tiborga molik jihati edi. Biroq, mavjud ma'lumotlar, Arkdagi ta'mirlash ishlari talab darajasida bo'lmaganligi, ikki yil (1981-1982-yillar) davomida ishlar sust amalga oshirilganligidan guvohlik beradi.

Buxoro me'moriy obidalaridagi ta'mir ishlari 1983-yildan e'tiboran, Buxoro davlat tarixiy-me'moriy muzeyi tarkibida Yodgorliklarni ro'yxatga olish, saqlash va ta'mirlash bo'limi sifatida qayta tashkil etilgan muassasa tomonidan amalga oshirila boshlanadi. Jumladan, Ark qo'rg'onidagi ta'mirlash, qayta tiklash va muhofaza jarayoni mazkur bo'lim nazoratiga olinadi.

1985-yilda Respublika budjetidan 611.000 rubl ajratilib, Buxorodagi jami o'n sakkizta me'moriy yodgorlik qisman ta'mirdan chiqariladi. Mas'ul muassasa va tashkilotlarning o'zaro yozishmalarini tahlil qilish natijasida ushbu davrda

ta'mirlash bilan bog'liq bir qancha muammolar, jumladan, Ark atrofidagi devorlarni ta'mirlash uchun ustunli kran zarurati, to'rtburchak shakldagi g'ishtlarni tayyorlash, Tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash jamiyatining Buxoro bo'limi tomonidan targ'ibot masalasida keng ko'lamlil ishlar olib borilmaganligi kabilar aniqlandi.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar tahlili asosida XX asrning 50-80-yillari mobaynida Ark qo'rg'onidagi ta'mirlash ishlari, asosan, ma'muriy binolarning joylashtirilishi, bino ekspluatatsiyasi (yotoqxonalar, harbiy qismlar joylashtirilishi) oqibatini bartaraf etish, ijara asosida foydalanish, muzey faoliyati uchun moslashtirish kabi muayyan maqsadlar natijasida amalga oshirilgani to'g'risida xulosaga kelish o'rinli.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy arxivi (*keyingi o'rinlarda – O'zbekiston MA*), R-2296-fond, 1-ro'yxat, 417-yig'majild, 205-varaq.
2. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 439-yig'majild, 109-varaq.
3. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 2-ro'yxat, 9-yig'majild, 169-varaq.
4. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 2-ro'yxat, 109-yig'majild, 53-54-varaq.
5. O'zbekiston MA, R-2487-fond, 3-ro'yxat, 4271-yig'majild, 19-varaq.
6. O'zbekiston MA, R-2487-fond, 3-ro'yxat, 4899-yig'majild, 37-38-varaqlar.

TO'YCHIBOEV B.B.

tarix fanlari nomzodi, dotsent.

BOBOJONOVA Ch., OMONOV M.

GulDPI talabalari

(O'zbekiston)

MUZEY-QO'RIQXONALAR KOMPLEKSI - ZAMONAVIY MUZEYLAR SIFATIDA (PETROGLIF YODGORLIKLAR MISOLIDA)

Annotatsiya: Mamlakatimiz hududida arxeologik yodgorliklarning soni so'ngi yillarda keskin kamayib bormoqda. Qadimgi qoyatosh surat yodgorliklari boshqa arxeologik yodgorliklardan farqli ravishda o'zlarining hususiyatidan kelib chiqib antropogen omillar tasirida yo'qolib ketish xavfi yuqori bo'lgan yodgorliklar hisoblanadi. Qadimgi qoyatosh suratlar tabiatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, ularni inson ta'siridan saqlash juda mushkul masala hisoblanadi. Qoyatosh va g'orlardagi qadimgi tasvirlar ochiq osmon ostidagi muzey hisoblanadi. SHu sababli ularni saqlash va keng omma e'tiboriga muzey-qo'riqxonalar shaklda etkazish dolzarb masala hisoblanadi.

Annotatsiya: Количество археологических памятников на территории нашей страны в последние годы резко сокращается. В отличие от других археологических памятников, древние наскальные рисунки под воздействием антропогенных факторов считаются подверженными высокому риску исчезновения. Древние наскальные рисунки – неотъемлемая часть природы, и сохранить их от воздействия человека считается очень актуальным вопросом. Наскальные и пещерные изображения – это музей под открытым небом. Поэтому считается актуальным, вопрос их сохранения и доведения до широкой публики в виде музеев - заповедников.

Annotation: The number of archaeological sites in our country has been sharply declining in recent years. Unlike other archaeological sites, ancient rock art is considered to be

SALONIYATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ROLI	191
--	-----

**UCHINCHI SHO‘BA: MADANIY MEROSNI TADQIQ VA TATBIQ ETISH,
SAQLASH VA TARG‘IB ETISH TAMOIILLARI**

ҚЎРБОНОВА Д. ГЕРМАНИЯДАГИ БЕРЛИН АМАЛИЙ САЊЪАТ МУЗЕЙИДА ЎЗБЕКИСТОНГА ОИД АШЁЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ҲАКИДА.....	195
KLICHEV O. A. «ТОҶ – SULTON UQA» - DIPLOMATIK MULOQOT VOSITASI	201
ДОСПАНОВ О. РОЛЬ С.П.ТОЛСТОВА И ХАЭЭ В ФОРМИРОВАНИИ АРХЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОЛЛЕКЦИИ КАРАКАЛПАКСКОГО МУЗЕЯ ИСКУССТВ ИМЕНИ И.В.САВИЦКОГО.....	204
ЎЛМАСОВ А. Ф. ЭРМИТАЖ РЕСТАВРАТОРЛАРИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ФАОЛИЯТИГА ДОИР.....	209
ПЕРЕМКУЛОВ Ж. А. XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДАГИ ТОШКЕНТЛИК ИЛМ-ФАН НАМОЁНДАЛАРИ.....	214
BOY MIRZAYEV S. O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYIDA SAQLANAYOTGAN ARXEOLOGIK ASHYOLARNING XUSUSIYATLARIGA OID BAZI MASALALAR.....	218
ЎРОЛОВА М.М. ЎЗБЕКИСТОНДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ИШТИРОКЧИЛАРИНИ ХОТИРЛАШ	223
БЎРИЕВ Т. Х. ШАХМАТНИ ВАТАНИ ҲИНДИСТОНМИ?... ..	227
DALIYEVA N. SAMARQAND MUZEYINING BRONZA OYNALARI KOLLEKSIYASI.....	234
ХАЛИЛОВ Ж. ЁҒОЧГА БИТИЛГАН САЊЪАТ	241
YUNUSOV M. SAMARQAND VILOYATINING ARXEOLOGIK MEROSIGA BO‘LGAN QIZIQISHNING YUZAGA KELISHI (XIX ASR OXIRI).	248
O‘RINBOYEVA M. Y. ZARAFSHON VOHASINING GEOLOGIK TUZILISHI VA MUZEY ZALLARIDAGI GEOLOGIK TOSHLAR HAQIDA	255
ABDULLAEVA D. A. XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA MANG‘IT HUKMDORLARI QARORGOHINING TA‘MIROTIDAGI MUAMMOLAR.	258
ТО‘УЧИБОВЕВ В.В., ВОБОЖОНОВА Ch., ОМОНОВ М. MUZEY- QO‘RIQXONALAR KOMPLEKSI - ZAMONAVIY MUZEYLAR SIFATIDA (PETROGLIF YODGORLIKLAR MISOLIDA).....	261
MUXAMEDOVA M. S. YAQIN O‘TMISH MEROSINING RASSOMLAR IJODIDAGI TALQINI	266
КАРИМОВ З. ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИ ТАРИХИНИ АБАДИЙЛАШТИРИШ:»ҒАЛАБА БОҒИ» ЁДГОРЛИК МАЖМУАСИ	